
Press-tur qatnashchilari Toshloq tumanidagi "Egg Box Group" MCHJ tomonidan ishlab chiqarilayotgan inkubatorlar bilan tanishdilar

"Egg box group" MCHJ respublikada sanoat usulida inkubatsiya ishlab chiqaradigan sanoqli korxonalar sirasiga kiradi. Asosan parrandachilik jihozlari, shuningdek, oshxona mebellari, savdo stellajlari tayyorlanadi.

Korxonada payvandchi, elektrik va yig'uvchilardan iborat 25 nafar ishchi-xodimlar mijozlar talabini bajargan holda, parrandalar boqiladigan katak-lar yasashadi.

MCHJ rahbari Muhammadjon Mahmudovning aytishicha, 1 yilda 5000 ta inkubator ishlab chiqariladi.

Press-tur davomida mutaxassis va mutasaddilar tomonidan ishtirokchilarga korxonada olib borilayotgan ishlar haqida keng ma'lumotlar berildi.

2023-08-17 18:07:16